

O‘ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI VA ULAR DINAMIKASI TAHLILI

Atayev Jahongir Erkinovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
“Biznes va boshqaruv” kafedrasida
Stajyor o‘qituvchisi
E-mail: xortrudstat@umail.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda aholi turmush farovonligi asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi va o‘zgarishlar qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. O‘zbekistonda aholi jon boshiga umumiy hamda real umumiy daromadlar o‘zgarish dinamikasining hududlar kesimidagi farqlanishi tadqiq qilingan. Shuningdek, Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy va real umumiy daromadlarni statistik tahlili natijalari asosida o‘zgarishlarning barqarorlikka ta’siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Aholi, turmush farovonligi, real daromadlar, faollik darajasi, Jini koeffitsiyenti, o‘sish sur’ati.

Аннотация

В данной работе проведен сравнительный анализ динамики и изменений основных показателей благосостояния населения Узбекистана. Исследованы различия в динамике совокупных и реальных совокупных доходов на душу населения в разных регионах Узбекистана. Кроме того, на основе результатов статистического анализа совокупных и реальных совокупных доходов на душу населения в разных регионах изучено влияние этих изменений на устойчивость экономики.

Ключевые слова: Население, благосостояние, реальные доходы, уровень активности, коэффициент Джини, темпы роста.

Abstract

This paper conducted a comparative analysis of dynamics and changes in main indicators of the well-being of the population in Uzbekistan. Studied the differences in dynamic changes in total and real total per capita incomes in Uzbekistan across regions. In addition, studied impact of changes on sustainability based on results of statistical analysis of total and real total per capita incomes across regions.

Keywords: Population, well-being, real incomes, activity level, Gini coefficient, growth rate.

KIRISH

Aholi turmush farovonligini oshirish, turmush farovonligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar barqarorligini ta’minlash, aholi daromadlari orasidagi tengsizliklarni bartaraf etish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni belgilashda tayanch maqsad va muhim indikator vazifasini bajaradi. Xususan, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tengsizligini kuchayishi bilan bog‘liq muammolarni kuchayishi ushbu maqsadga va uning asosida belgilanadigan vazifalarning ahamiyatlilik darajasini yanada oshiradi.

Shu sababdan mamlakatimizda aholi turmush farovonligini oshirish, o'рта sinfni shakllantirishda masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida aholi turmush farovonligini oshirish, daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish, jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarni oshirishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib 21-maqсадida iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish masalalari belgilab berilgan [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi turmush farovonligi ko'p o'lchovli tushuncha bo'lib [6], natijada mazkur tushunchani tavsiflash hamda turmush farovonligini o'lchash masalasi ko'plab tadqiqotlarda obyekt vazifasini bajarmoqda. Keyingi davrda esa olimlar subyektiv farovonlik o'lchash muammosini tadqiq qilishmoqda [2,5]. Bunda olimlar insonlarni moddiy ta'minlanganlik bilan bir qatorda ularning ruhiy holatlarini ham hisobga olishni nazarda tutadi [4]. Subyektiv farovonlik gedonik farovonlik va hayotdan qoniqishning kombinatsiyasi sifatida izohlanadi [3]. Keng ma'noda, subyektiv farovonlik muhim indikator yoki proksi o'zgaruvchi vazifasini bajarishi mumkin va shaxsning umumiy obyektiv farovonligini o'zida mujassamlashtiradi. Subyektiv farovonlikni baholash qiyosiy tengsizlik aniqlash va odamlar uchun yaratilgan imkoniyatlarning to'liq tushunish uchun daromaddan tashqarida bo'lgan odamlar hayoti haqida tushunchalarni taklif qilishni o'z ichiga [6]. Biroq shunday bo'lishiga qaramasdan aholi turmush farovonligi, jumladan ruhiy xotirjamligi ularning daromadlari bilan bog'liqligicha qolmoqda. Shu sababdan mazkur maqolada daromadlar o'zgarishini turmush farovonligiga ta'siri qarab chiqilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatda aholi turmush farovonligini belgilovchi asosiy indikatorlarning ijobiy o'zgarishi kuzatilgan bo'lsada, ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlar samaradorligini baholashda nafaqat miqdor va balki sifat ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarning o'zaro bog'liqliklari va barqarorlik darajalarini statistik usullar asosida tadqiq qilish asosida mavjud imkoniyatlardan yanada to'laqonli foydalanish yo'llarini aniqlash kunning muhim mavzularidan biri hisoblanadi. Ko'pchilik holatlarda daromadlar tengsizligi muammosi hududlar kesimidagi taraqqiyot darajalarining farqlari hisobiga kelib chiqadi. Shuni hisobga olgan holda mamlakat hududiy birliklari kesimida aholi jon boshiga umumiy va real umumiy daromadlar o'zgarish dinamikasi tadqiq qilindi.

Buning uchun 2010-2024 yillar ma'lumotlari asos qilib olinib, ushbu yillardagi o'sish sur'ati aholi jon boshiga umumiy va real umumiy daromadlarning o'zgarishdagi farqlar o'rganildi. Mamlakatda aholi jon boshiga umumiy daromadlar yiliga o'rtacha 18,7 foizga o'sib, 11 barobarga oshishi ta'minlangan. Hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'atlari 20,4 (Toshkent shahri) va past o'sish sur'ati 16,6 (Sirdaryo viloyati)

foizni tashkil qilgan. Natijada, jon boshiga umumiy daromadlar hajmi Toshkent shahrida 13,4 barobarga, Sirdaryo viloyatida esa 8,5 barobarga oshishi kuzatilgan oradagi farq 5,8 birlikni tashkil qilmoqda (1-rasm).

Ushbu farq yetarli darajada katta bo‘lib, daromadlaridagi tengsizligi mavjudligi va uning nisbatan oshganligi hududlar kesimida aholi farovonligini farq qilishiga sabab bo‘lmoqda. Aslini olgan hududiy rivojlanishdagi farqlarni to‘liq bartaraf etish imkonsiz, chunki ularning joylashuvi, mavjud imkoniyatlari bunga to‘sqinlik qiladi, biroq farqlarni maksimal darajada kamaytirish mumkin.



1-rasm. Aholi jon boshiga umumiy hamda real umumiy daromadlar o‘zgarish dinamikasining hududlar kesimidagi o‘zgarishi (2010-2024 yillar)

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlari dinamikasi tahlil ularni nisbatan barqarorligi, hududlar kesimidagi o‘zgarish 2010-2024 yillarda 2,4 va 3,5 barobar atrofida o‘zgarib turganligini ko‘rsatmoqda. Ushbu holatda ham maksimal va minimal qiymatlar Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatiga to‘g‘ri kelgan. Mamlakat miqyosida o‘rtacha o‘sish sur‘ati 8,3 foizni tashkil qilgani holda jon boshiga umumiy daromadlar o‘sish sur‘atiga nisbatan 10,4 foizga kamroq ekan.

Hududlar kesimidagi o‘sish sur‘atlarini farq qilishi daromadlardagi tengsizligini mos ravishda oshishini. Holatni baholash uchun tadqiq qilinayotgan davrda hududlarda jon boshiga umumiy va real umumiy daromadlarni tavsiflovchi statistik ko‘rsatkichlari hisoblanildi. Oldingi tahlilda mamlakat miqyosidagi ko‘rsatkich olingan bo‘lsa, ushbu

tahlilda oʻrtacha koʻrsatkichdan foydalanildi. Chunki, hududlar kesimidagi oʻzgarishlarning turli darajada boʻlishi va ularning vaznini bir xil emasligi ikkala koʻrsatkichning farqli boʻlishini taʼminlaydi. Aniqlangan qiymatlar farqning mavjudligi, biroq ahamiyatli darajada boʻlmaganligini koʻrsatmoqda.

Variatsion kenglikning oshib borishi hududiy farqlarning ham mos ravishda oʻzgarishini taʼminlaydi. Daromadlarning doimiy oʻsish surʼatini taʼminlanishi ushbu koʻrsatkichning ham mos ravishda oshiga sabab boʻlgan. Shu sababdan holatni baholash maqsadida variatsion kenglik koʻrsatkichini oldingi davrga nisbatan oʻsish surʼati qarab chiqildi. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar boʻyicha aniqlanilgan variatsion kenglikning oʻsish surʼati 36,1 va 6,02 foiz atrofida. Yaʼni, 2024-yilda koʻrsatkich 2023-yildagiga nisbatan 36,1 foizga oshgan, bu maksimal va minimal koʻrsatkichlar orasidagi farqning oshganligini koʻrsatadi. Minimal oʻsish surʼati 2020-yilga, pandemiya sababli iqtisodiyotdagi cheklashlar davriga toʻgʻri keladi (1-jadval).

2018-yilda aholi jon boshiga umumiy daromadlar boʻyicha aniqlanilgan variatsion kenglik oldingi davrdagiga nisbatan 18,1 foizga oshib hududiy farqlarning kengayganligini koʻrsatmoqda. Biroq, aholi jon boshiga real umumiy daromadlar boʻyicha aniqlanilgan qiymatning 0,6 foizga kamayishi kuzatilgan. Umumiy hisobda mazkur yilda daromadlar tengsizligini bartaraf etish boʻyicha ijobiy natijalarga erishilgan deyish mumkin. Ikkala koʻrsatkich oʻsish surʼatlaridagi farq esa hududlardagi narxlar darajasi farqini oshganligini koʻrsatadi.

Hisoblanilgan oʻrtacha kvadratik oʻzgarishlarining variatsion kenglikdagi oʻzgarishlarga nisbatan farq qilishi hududiy farqlardagi keskinlikni oshishi yoki aksincha holatni ifodalaydi. Ikkala oʻsish surʼatlari yillar kesimidagi farqlarini oʻzgarishi keskinlikni ham nobaroqar boʻlganligini ifodalaydi. Xususan, 2012-yilda aholi jon boshiga umumiy daromadlar boʻyicha aniqlanilgan variatsion kenglik 21,3 foizga oshgan boʻlsa, oʻrtacha kvadratik chetlanish 14,2 foizga oshgan. Bu oʻz hududlar kesimidagi farqlarning maksimal va minimal qiymatlari yuqori darajada oʻzgargan boʻlishiga qaramasdan keskinlik darajasini pasayganligini koʻrsatmoqda. 2015-yilda esa teskari holatni kuzatish mumkin. Ayni holatni aholi jon boshiga real umumiy daromadlar darajasida ham kuzatish mumkin.

Ushbu jarayonga aniqlik kiritish va dinamikani tadqiq qilish maqsadida standart koʻrsatkichdan foydalanildi. Yaʼni, variatsion kenglikni oʻrtacha kvadratik chetlanishga boʻlish asosida aniqlanilgan mazkur koʻrsatkich keskinlik darajasini baholashga xizmat qiladi. Ushbu holatda variatsion kenglikni oshishi standart koʻrsatkichga ijobiy, oʻrtacha kvadratik chetlanishni oshishi salbiy taʼsir koʻrsatadi. Natijada, standart koʻrsatkichning oshishi ikki holatda kuzatiladi, variatsion kenglikni oshishi yoki oʻrtacha kvadratik chetlanishni pasayishi.

Natijalarni koʻrsatishicha 2012-yilda standart koʻrsatkichni keskin oshishi variatsion kenglik oshishi va oʻrtacha kvadratik koʻrsatkichni pasayishi hisobiga sodir boʻlgan. 2015-yilda esa teskari holatni kuzatilgan. Bir soʻz bilan aytganda standart koʻrsatkichning oʻzgarish dinamikasi asosida mamlakatda hududlar kesimidagi daromadlar tengsizligidagi keskinlikni oshgan yoki kamayganligini baholash mumkin.

1-jadval
Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy va real umumiy daromadlarni statistik tahlili natijalari¹

Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, yillik (ming so‘m)						
	O‘rtacha qiymat	Maksimal qiymat	Minimal qiymat	Variatsion kenglik	O‘ratcha kvadratik chetlanish	Standart ko‘rsatkich
2010	2267,6	4505,9	1498,9	3007,0	877,3	3,4
2011	3039,9	5641,4	1972,6	3668,8	1070,1	3,4
2012	3605,2	6865,6	2414,4	4451,2	1222,5	3,6
2013	4303,6	8307,3	2856,2	5451,1	1469,3	3,7
2014	4914,7	9254,4	3316,1	5938,3	1614,7	3,7
2015	5620,4	10614,8	3906,4	6708,4	1903,3	3,5
2016	6439,3	12313,1	4371,2	7941,9	2169,0	3,7
2017	7932,5	15736,2	5507,7	10228,4	2761,0	3,7
2018	9845,5	19198,1	7116,0	12082,1	3365,2	3,6
2019	11770,5	24612,0	8485,7	16126,3	4462,0	3,6
2020	13087,8	26334,9	9215,4	17119,4	4874,5	3,5
2021	15953,5	31496,5	11731,3	19765,2	5904,8	3,3
2022	18820,7	38142,2	13789,1	24353,2	6858,1	3,6
2023	21182,6	47182,0	15043,9	32138,1	8796,2	3,7
2024	24538,1	60581,6	16834,4	43747,2	11808,0	3,7
Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, yillik (ming so‘m)						
	O‘rtacha qiymat	Maksimal qiymat	Minimal qiymat	Variatsion kenglik	O‘ratcha kvadratik chetlanish	Standart ko‘rsatkich
2010	2107,2	4152,2	1389,1	2763,1	804,1	3,4
2011	2629,8	4808,2	1696,1	3112,2	904,3	3,4
2012	2906,4	5476,6	1931,8	3544,7	967,7	3,7
2013	3237,9	6243,3	2128,9	4114,4	1094,7	3,8
2014	3471,6	6536,8	2339,7	4197,1	1126,2	3,7
2015	3764,0	7131,6	2611,1	4520,5	1264,3	3,6
2016	4086,1	7851,9	2762,5	5089,4	1372,6	3,7
2017	4600,4	9131,7	3201,7	5930,0	1588,4	3,7
2018	4859,6	9405,7	3509,1	5896,6	1636,0	3,6
2019	5077,1	10543,8	3594,7	6949,1	1899,4	3,7
2020	4999,9	9753,0	3461,7	6291,3	1800,9	3,5
2021	5499,1	10338,2	3994,8	6343,4	1937,8	3,3
2022	5816,4	11185,9	4326,4	6859,5	1989,5	3,4
2023	5943,6	12427,6	4300,4	8127,1	2284,1	3,6
2024	6272,0	14341,4	4403,7	9937,7	2754,7	3,6

¹ Manba: muallif ishlanmasi

Aholi turmush farovonligini baholashda daromadlarning real ko'rsatkichlari asosida baholash talab qilinadi. Chunki, inflyatsiya darajasining yuqoriligi sharoitida daromadlar o'zgarishidagi natijalar to'liq real o'zgarishlarni ifodalamasligi mumkin. Shu sababdan 100 ta uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan uzoq muddatli foydalaniladigan vositalar o'zgarishlari asosida qarab chiqamiz (2-jadval).

2-jadval
O'zbekistonda 100 ta uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan uzoq muddatli foydalaniladigan vositalar sonini o'zgarish dinamikasi¹

	Yengil avtomobillar soni	Mobil telefonlar soni	Kir yuvish mashinalar soni	Shaxsiy kompyuterlar soni	Elektr changyutgichlar soni	Konditsionerlar soni	Sovutgich va muzlatgichlar soni	Televizorlar soni
2010	21	145	75	12	37	19	99	132
2015	42	234	79	47	53	32	101	152
2020	49	287	90	60	60	40	107	162
2021	53	308	94	63	64	43	114	170
2022	55	309	95	64	69	45	115	171
2023	57	349	96	66	71	47	118	176
2024	58	356	101	73	82	56	121	177
2024-yilda 2010-yilga nisbatan o'zgarish birlikda	37	211	26	61	45	37	22	45
2024-yilda 2010-yilga nisbatan o'zgarish marta	2,8	2,5	1,3	6,1	2,2	2,9	1,2	1,3


Tahlillar 8 turdagi vositaning barchasini oshganligini ko'rish mumkin. Ammo, ular o'zgarishidagi farqlarni aniqlash maqsadida ikkita ko'rsatkich, ya'ni dastlab 2024-yilda 2010-yilga nisbatan o'zgarishining birlikda qarab chiqildi. Unga ko'ra 100 ta xo'jalikka to'g'ri keladigan yengil avtomobillar soni 37 birlikka, mobil telefonlar soni 211 birlikka oshgan. Boshqa vositalar bilan ham ta'minlanganlik darajasini oshganligini ko'rish mumkin.

Ma'lumotlarning masshtab jihatdan bir biridan farq qilishini hisobga olgan holda nisban o'zgarishlarini qarab chiqamiz, unga ko'ra har 100 ta uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan mobil telefonlar sonini 211 birlikka oshgan bo'lishiga qaramasdan 2010-yilga nisbatan 2,5 barobarga ko'paygan. Shaxsiy kompyuterlar soni 61 birlikka oshgan, biroq nisbat o'zgarishi 6,1 barobarni tashkil qiladi. Shaxsiy kompyuterni hisobga olmaganda asosiy o'zgarishlar konditsioner va yengil avtomobillarga to'g'ri keladi.

¹ muallif ishlanmasi

Eng past ko'rsatkichlar sovitgich va muzlatgichlar, kir yuvish mashinalari hamda televizorlarga to'g'ri kelgan. Umumiy hisobda barcha vositalarning bilan ta'minlanganlikni oshishi aholi turmush faravonligini oshganligini asoslaydi.

Aholi daromadlari taqsimotidagi notekislik baholash uchun Jini koeffitsiyentidan foydalaniladi va mamlakatimizda ham ushbu ko'rsatkich statistikasi yuritiladi. Uning 2010-2024 yillardagi o'zgarish dinamikasi quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda Jini koeffitsiyenti dinamikasi

Mazkur koeffitsiyent nol va bir orasidagi qiymatlarni qabul qiladi, birga yaqin bo'lishi notekislikning yuqoriligini, nolga yaqin bo'lishi daromadlar taqsimotida tenglik ta'minlanganligini ko'rsatadi. Jini koeffitsiyenti 2010-2024 yillarda 0,3 dan kichik va 2010-yildan 2016-yilga qadar pasayishi kuzatilgan, 2016-2019 yillarda uning deyarli o'zgarishsiz qolgan. 2020 yilga kelib oshgan va 2021 va 2024-yillarda biroz pasaygan, 2022 va 2023-yillarda oshgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar notekisligi tabiiy holat hisoblanadi, chunki bu bozor ojizligining muhim bir ko'rinishi bo'lib, bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan davlatlarda bu muammolar ta'sirini yumshatish uchun ijtimoiy siyosat yuritiladi. Jini koeffitsiyenti diapazonini kichikligi daromadlar notekislikni normal holatda deyishga asos bo'ladi.

Mamlakatimizda aholi daromadlari notekisligini yanada aniqroq ifodalash maqsadida aholi daromadlarining 20-foizli guruhlari bo'yicha notekis taqsimlanishi ko'rsatkichlari statistikasi yuritila boshlandi. Mazkur ko'rsatkich 2017-yildan keyingi davr uchun mavjud (3-jadval).

3-jadval

Aholi daromadlarining (aholining) 20-foizli guruhlari bo'yicha notekis taqsimlanishi ko'rsatkichlari (yillik foizda)

	I kvintil guruh, yillik foizda	II kvintil guruh, yillik foizda	III kvintil guruh, yillik foizda	IV kvintil guruh, yillik foizda	V kvintil guruh, yillik foizda
2017	9,3	13,6	17,3	21,8	37,9
2018	9,3	13,6	17,2	22	37,8
2019	9,1	13,6	17,4	22,6	37,3
2020	8,5	13,3	17,2	22,6	38,3

	I kvintil guruhi yillik foizda	II kvintil guruhi, yillik foizda	III kvintil guruhi, yillik foizda	IV kvintil guruhi, yillik foizda	V kvintil guruhi, yillik foizda
2021	8,4	13,4	17,5	23	37,6
2022	8,6	13,1	16,8	22	39,5
2023	8,3	12,8	16,9	22,7	39,2
2024	8,3	12,9	16,9	22,7	39,2

Birinchi uchinchigacha bo‘lgan kvintillarda pasayish, to‘rtinchi va beshinchi kvintillarda oshishni kuzatish mumkin. Ya’ni, bu dastlabki yigirma foiz aholiga to‘g‘ri keladigan daromadning ulushi 9,3 foizdan 8,3 foizgacha kamayganligini, oxirgi yigirma foizga to‘g‘ri keladigan daromad ulushini 37,9 foizdan 39,2 foizga qadar oshganligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalariga ko‘ra aholi daromadlarining oshishi bilan ularning hududlar kesimidagi farqlarining ham oshgan. Agarda, hudud salohiyati nuqtai nazardan mavjud farqlarni hisobga oladigan bo‘lsak, buni normal holat sifatida qabul qilish mumkin. Shuningdek, aholi turmush faravonligini ifodalashda muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlar, xususan daromadlar notekisligini ifodalovchi indikatorlarda ham o‘ziga xos o‘zgarishlar kuzatilgan. Jumladan Jini koeffitsiyenti tadqiq qilinayotgan davrning boshida pasaygan, ammo oxirida o‘sgan. Biroq o‘zgarishlar normal holatda bo‘lib, umumiy hisobda salbiy ta’sirga ega emas. Natijada, aholini turmush faravonligini oshishi ta’minlangan bo‘lib, har 100 uy xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan uzoq muddatli foydalaniladigan vositalarning o‘sishi ta’minlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Deaton, A. (2008). Income, health, and well-being around the world: Evidence from the gallup world poll. *Journal of Economic Perspectives*, 22(2), 53–72.
3. Diener, E., Suh, E. M., Lucas, R. E., & Smith, H. L. (1999). Subjective well-being: Three decades of progress. *Psychological Bulletin*, 125(2), 276–302.
4. Dolan, P., & White, M. (2007). How can measures of subjective well-being be used to inform public policy? *Perspectives on Psychological Science*, 2(1), 71–85.
5. Frey, B. S., & Stutzer, A. (2002). What can economists learn from happiness research? *Journal of Economic Literature*, 40(2), 402–435.
6. Margolis, S., Schwizgebel, E., Ozer, D. J., & Lzubomirsky, S. (2021). Empirical Relationships Among Five Types of Well-Being. In M. T. Lee, L. D. Kubzansky, & T. J. VanderWeele (Eds.), *Measuring Well-Being: Interdisciplinary Perspectives from the Social Sciences and the Humanities*. New York City: Oxford Univ. Press.

7. Veenhoven, R. (2005). Return of inequality in modern society? Test by dispersion of life-satisfaction across time and nations. *Journal of Happiness Studies*, 6(4), 457–487.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Ingliz tili muharriri:

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Rus tili muharriri:

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Musahhah:

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**